

## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA YANGI PED TEXNOLOGIYALARNING VA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

*Murodova Diyora Raimovna*

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi  
2-bosqich talabasi*

*Ilmiy raxbar: Zubaydova N.N.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalar va ularning turlari, interfaol metodlarning til o'rgatishda ahamiyati va chet tillarni tez va qisqa vaqt davomida o'rganish imkoniyatlari haqida ma'lumotlar berildi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, qiziqarli o'yinlar.

Bugungi kunda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Darhaqiqat, ta'limda zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining unumdorligini oshiribgina qolmay o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Interfaol metodlar-ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro faoliyatini ta'minlovchi, ularni faolashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi hamda ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yo'naltirilgan metodlardir. Interfaol metodlar o'z xususiyatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish), suhbat -dars jarayonini loyihalash orqali, muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ- ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Didaktik o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlari aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarni ishga tushushiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof -muhit, hayotni bilishga qiziqishi ortadi

uchragan qiyinchilik, to'siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.[<sup>1</sup>].

Bugungi kunda ta'lim sifatini yaxshilash uchun raqamli texnologiyalardan, va yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Ta'limda raqamli texnologiyalar - bu raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim muhitini tashkil etish usuli. Raqamli ta'lim muhiti (DSP) - bu ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini birlashtiruvchi ochiq axborot tizimlari to'plamidan iborat raqamli makon.

Bolalar tabiatan juda qizqqon bo'lishadi. Ularga xorijiy tillarni o'yinlar va qiziqarli mashg'ulotlar orqali o'rgatish muhim hisoblanadi. Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda o'yinlardan foydalanilsa darsning qiziqarliligi va barcha uchun tushunarligi oshadi. Quyda bir nechta qiziqarli metodlarga va o'yinlarga misollar berildi.

"Where shall I go"(Qayerga borsam bo'ladi). Ushbu o'yin ingliz tilidagi o'tilgan mavzular ya'ni predloglar mavzusini takrorlash uchun foydalaniladi. Bu o'yin juda ham qiziqarli bo'lib, o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish uchun ham juda samaralidir. Bu o'yin barcha yosh kategoriyalariga mos keladi. O'yin quydagicha boshlanadi. O'quvchilar ikki nafardan juftliklarga bo'linadi. Ulardan birining ko'zi boylangan bo'ladi. Ko'zi bog'lanmagan sherigi esa qanday qilib manzilga borishini inglizchisiga predloglar yordamida aytib beradi. Manzilga tez va qisqa vaqt ichida borgan tushuntirishlari va nutqi ravon bo'lgan guruh o'quvchilari g'olib hisoblanadi.

BACK TO BACK – bu o'yin o'quvchi xotirasini charxlaydi va eshitish qobiliyatini o'stiradi. Stolga rang-barang rasmlarni chap tomoni bilan qo'yib chiqamiz, ikki o'quvchini doskaga chiqaramiz va ularning birovidan rasmlarni tanlab olishini so'raymiz, ikkinchi o'quvchiga ko'rsatmasdan ular ikkita bir-biriga teskari stulga o'tiradilar. Rasmni ushlab turgan bola topishmoq usulda unda nima tasvirlanganini aytadi va ikkinchi o'quvchi eshitgan so'zlarni qog'ozga tushiradi. Eshitganlarini yaqqol va aniq tushirsa o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu o'yin yuqori sinflar uchun ham juda qiziqarli.[<sup>2</sup>].

Stol poygasi - bu hozirgina o'rgatgan darsdagi so'zlar yoki o'tgan hafta o'qigan darsingizdagi so'zlar bo'ladimi, lug'atni qayta ko'rib chiqish uchun ishlatiladigan qiziqarli o'yin. Bundan o'quvchilarni faollashtirish uchun dars boshida ham foydalanish mumkin. Bu o'quvchilaringizni siz o'rgatmoqchi bo'lgan fan haqida bilishlarini sinab ko'rishning ajoyib usuli. Bu o'yin eng yaxshi 6 yoki undan ortiq talaba bilan o'ynaladi - qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Bu barcha yosh kategoriyalariga mos keladi. Bu o'yin lug'atlarni qayta ko'rib chiqish va grammatikani yaxshilash uchun foydalanadi. O'yin quydagicha boshlanadi. Sinf o'quvchilarni ikkita jamoaga

---

1  
2

bo'ling va har bir jamoaga rangli marker bering. Agar sizning sinfingiz juda katta bo'lsa, o'quvchilarni 3 yoki 4 kishidan iborat jamoalarga bo'lish yaxshiroqdir. Doskaning o'rtasidan pastga chiziq chizing va tepaga mavzu yozing. Mazular o'tilgan mavzular bolishi kerak. O'quvchilar estafeta shaklida mavzuga oid qancha so'z bilishsa shuncha so'z yozishlari kerak. Har bir jamoa har bir to'g'ri so'z uchun bir ochko oladi. O'qib bo'lmaydigan yoki noto'g'ri yozilgan so'zlar hisobga olinmaydi. Eng ko'p to'g'ri so'z yozgan guruh g'olib bo'ladi.

"Tarjimonlar" Bu to'p o'yini. O'yin bolaning nutqini, so'zlarni yodlashni rivojlantiradi. Bolalar aylanaga yig'ilishadi. O'qituvchi so'zni o'z ona tilida gapiradi (ranglar, uy, hayvon, kiyim-kechak, poyabzal, o'yinchoqlar va boshqalar), bola uni rus yoki ingliz tiliga tarjima qiladi. [3].

Xulosa qilib aytmoqchimanki, biz pedagoglar xorijiy tillarni o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalardan va qizqarli metodlardan foydalansak dars mashg'ulotlarimiz o'zining qizqarli va sifatli ekanligi bilan o'quvchilarni e'tiborini tortadi. Darsda barcha oquvchilarning dasr davomida faol harakat qilishlarni ta'minlaydi. Eng asosiysi bolarda til o'rganishga va mantiqiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 5 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-447-459 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 447 May, 2022 [https://t.me/ares\\_uz](https://t.me/ares_uz) Multidisciplinary Scientific Journal BOSHLANGICH SINIF OQUVCHILARINING MANODOSH VA ZID MANOLI SOZLAR YORDAMIDA OGZAKI NUTQINI OSTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI 456-457 betlar.
2. <http://marifat.uz/marifat/ruknlr/umumii-urta-talim/4779.htm>(Xurshidabonu ziyatova maqolasi . marifat.uz gazetasi.
3. "Science and Education" Scientefic journal /impact factor3.848. April/volume 4 issue 4 "Maktab yoshgacha bolalarga rus tilini o'qitish metodikasi va dolzarblygi" va mavzusidagi Otabek Eshonqulov Parizoda Alisher qiziShodiyevaning maqolasi 760- bet.
4. <https://www.fluentu.com/blog/english/games-to-learn-english/>.